

Assessment 1.

1. Materiallarni kesib ishlash jarayoni o'rganilishida muxim ahamiyat kasb etgan «Soprotivleniye metallov i dereva rezaniyu» 1870 – yil asarining muallifi kim?

a) K.A. Zvorikin	c) Ya.G. Usaichev
b) I.A. Time	d) V.K. Seminskiy

2. Kesuvchi asboblarni ish bajarish xususiyatiga qarab texnologik nuqtai nazardan necha turga bo'lish mumkin?

a) 2	c) 4
b) 3	d) 5

3. Metall kesish dastgohlarida detallar ishlashda detal va kesuvchi asboblarning bir – biriga nisbatan siljishiga nima deyiladi?

a) Surish	c) Harakat
b) Kesish	d) Siljish

4. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan kesuvchi asboblarning asosan necha guruhga bo'linadi?

a) 6	c) 7
b) 8	d) 9

5. Keskichning asosiy kesuvchi qirra bilan yordamchi kesuvchi qirraning tutashuv joyi qanday nolanadi?


a) Kesuvchi qirra	c) Asosiy ketingi yuza
b) Yordamchi ketingi yuza	d) Keskichning uchi

6. Tezkesar po'lat markasidagi Φ harfidan keyingi raqamlar nimaning foiz hisobida o'rtacha miqdorini ifodalaydi?

a) Xrom	c) Kobalt
b) Volpfram	d) Vannadiy

7. Qanday qirindi bir – biri bilan bog'lanmagan, nomuntazam shaklli ayrim elementlardan iborat bo'ladi?

a) Uvoq	c) Egri
b) Siniq	d) Tutash

8.  Ushbu keskich qanday nomlanadi?

a) Yo'nib kengaytiruvchi	c) O'tuvchi
b) Kesib tushiruvchi	d) Rezba ochuvchi

9. GOST 2789 – 59 ga asosan yuza tozaligining nechta sinfi belgilangan?

a) 12	c) 14
b) 18	d) 16

10. Moylash – sovitish suyuqliklarining tarkibi tayyorlanishiga ko'ra necha turga bo'linadi?

a) 4	c) 5
b) 2	d) 3

Assessment 1.

1. Keskichga nisbatan qirindining ko‘chishga qarab kesish jarayoni necha turga ajratiladi?

a) 5	c) 3
b) 4	d) 2

2. Tokarlik dastgohida bo‘ylama yo‘nishda kesish chuqurligi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $t = \frac{D - d}{2}$	c) $t = \frac{D_0 - l}{2}$
b) $t = s \cdot v$	d) $t = a \cdot b$

3. Kesish jarayonida bo‘ylama va ko‘ndalang surishlarga parallel tekislik qanday nomlanadi?

a) Kesish tekisligi	c) Yordamchi tekislik
b) Oldingi tekislik	d) Asosiy tekislik

4. Keskichning kesish burchagi qanday bo‘lsa, oldingi burchak musbat ishorali bo‘ladi?

a) $> 90^\circ$	c) $< 90^\circ$
b) $< 75^\circ$	d) $> 75^\circ$

5. Keskich, parma, razvertka, metchik kabi kesuvchi asboblar qaysi markadagi uglerodli po‘latlardan tayyorlanadi?

a) Y10A; Y12A;	c) Y7A; Y9A;
b) Y7; Y7A;	d) Y9; Y10A;

6. Qachondan boshlab mineralokeramik materiallardan kesuvchi asboblar uchun sanoat miqyosida plastinkalar tayyorlash o‘zlashtirildi?

a) 1930 yildan	c) 1950 yildan
b) 1940 yildan	d) 1960 yildan

7. Melallarni kesish jarayonida necha xil qirindi hosil bo‘ladi?

a) 2	c) 4
b) 3	d) 5


8. Kesish jarayonida hosil bo‘ladigan, teng ta‘sir etuvchi kuchlar ichida qiymati jihatidan eng kattasi qaysi kuch hisoblanadi?

a) P_x	c) P_y
b) P_z	d) P

9. Qo‘shni dastgohdan fundament orqali o‘tadigan tebranishlar tebranishlarning qaysi guruhiga mansub?

a) Majburiy tebranish	c) Masofaviy tebranish
b) Avtotebranish	d) Umumiy tebranish

10.



Rasmda tokarlik keskichining qaysi turi iasvirlangan?

- | | |
|------------------------------|----------------------------------|
| a) O‘tuvchi keskich | c) Gantel keskichi |
| b) Kesib tushiruvchi keskich | d) Yo‘nib kengaytiruvchi keskich |

Assessment 1.

1. Tokarlik dastgohida buyumning o‘z o‘qi atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan harakatga qanday harakat deyiladi?
 - a) Asosiy harakat
 - b) Yordamchi harakat
 - c) Surish harakati
 - d) Bo‘ylama harakat

2. Keskich uchidan tayanch yuzasigacha bo‘lgan va shu yuzaga perpendikulyar holda o‘lchangan masofaga qanday nolanadi?
 - a) Keskich kallagining uzunligi
 - b) Keskich tanasining balandligi
 - c) Keskich tanasining uzunligi
 - d) Keskich kallagining balandligi

3. Keskichning oldingi burchagi qanday belgilanadi?
 - a) α
 - b) β
 - c) δ
 - d) γ

4. Yuqori sifatli uglerodli po‘latlar qanday markalanadi?
 - a) P8; P6M5
 - b) Y7A; Y 12A
 - c) T15K6; BK8
 - d) B1; XBF

5. Tezkesar po‘lat markasidagi P harfidan keyingi raqamlar nimaning foiz hisobida o‘rtacha miqdorini ifodalaydi?
 - a) Volpfram
 - b) Xrom
 - c) Kobalt
 - d) Marganes

6. Kesish jarayonida mineralokeramik materiallar qancha haroratgacha o‘zining turg‘unligini saqlab qoladi?
 - a) 800 – 900°S
 - b) 900 – 1000°S
 - c) 1100 – 1200°S
 - d) 1200 – 1300°S

7. Kesish jarayonida hosil bo‘ladigan o‘q bo‘ylab yo‘nalgan kuch qanday belgilanadi?
 - a) P_y
 - b) P_z
 - c) P_x
 - d) P

8. Keskichga ta‘sir etuvchi barcha kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi qaysi formuladan hisoblab topilishi mumkin?
 - a) $P = \sqrt{P_z + P_y + P_x}$
 - b) $P^2 = \sqrt{P_z^2 + P_y^2 + P_x^2}$
 - c) $P = \sqrt{P_z^2 + P_y^2 + P_x^2}$
 - d) $P = P_z^2 + P_y^2 + P_x^2$

9. Qaysi parametrlarning ortishida issiqlik qirindidan kesuvchi asbob va zagatovkaga o‘tishga ulgirmay, qirindi bilan birga chiqib ketadi?
 - a) Kesish tezligi
 - b) Surish miqdori
 - c) Kesish chuqurligi
 - d) Sovitish – moylash suyuqligi

10. Nikel, volofram, kobalt, xrom kabi materiallarni kesib ishlov berishda qaysi turdagi sovitish muhitidan foydalaniladi?
 - a) Karbonat angidridli
 - b) Moyli
 - c) Suvli
 - d) Parafin va petrolatumli

Assessment 1.

1. Asosiy harakat parmalash dastgohida nimadan iborat?

a) Parmaning o‘z o‘qi bo‘ylab surilishidan	c) Parmaning aylanishidan
b) Stolning surilishidan	d) Stolning ko‘tarilishidan

2. Kallagi tanasidan ensiz bo‘lgan keskichlarga qanday keskichlar deyiladi?

a) Egik keskich	c) Cho‘ziq kallakli
b) Chapaqay keskich	d) Qayrilma keskich

3. Keskichning oldnigi yuzasi bilan kesish tekisligi orasidagi burchak qanday nomlanadi?

a) Kesish burchagi	c) Oldingi burchak
b) O‘tkirlik burchagi	d) Asosiy ketingi burchak

4. Legirlangan asbobsozlik po‘latlaridan yasalgan kesuvchi asboblarning toblanib, so‘ngra bo‘shatilgandan keyin ularning qattiqligi qanchaga yetadi?

a) 56 – 64 HRC	c) 31 – 44 HRC
b) 61 – 64 HRC	d) 75 – 82 HRC

5. Xrom kremniyli po‘lat qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) B1	c) XГ
b) 9XC	d) XB5

6. Qirindi hosil bo‘lish nazariyasini jahonda birinchi bo‘lib kim o‘rgandi?

a) I.A. Time	c) Ya.G. Usaichev
b) K.A. Zvorikin	d) V.K. Seminskiy

7. Eng katta o‘simta qanday tezliklar bilan kesishda hosil bo‘ladi?

a) 20 – 30 m/min	c) 70 – 80 m/min
b) 50 – 60 m/min	d) 3 – 5 m/min

8. Titrash hosil bo‘lganda kesish tezligini pasaytirilishi nimaga ta‘sir etadi?

a) Ishlov berilayotgan detal yuza tozaligi yomonlashadi	c) Dastgohning ish unumi pasayadi
b) Kesuvchi asbobning yeyilishi turg‘unlashadi	d) Ish jarayonidagi issiqlik miqdori pasayadi

9. Qanday materialdan tayyorlangan kesuvchi asboblarning ish jarayonida uvalanishdan yemirilish ta‘siriga eng ko‘p uchraydi?

a) Uglerodli va legirlangan asbobsozlik po‘lati	c) Legirlangan asbobsozlik po‘lati va tezkesar po‘lat
b) Metallokeramik qattiq qotishma va tezkesar po‘lat	d) Metallokeramik va mineralokeramik qattiq qotishma

10. Kesish maromining elementari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a) t, s va v	c) P va N
b) s, λ va φ	d) t, d va v

Assessment 1.

1. Detal yo‘nilayotgan yuzasining kesuvchi asbob kesuvchi qirrasiga nisbatan asosiy harakat yo‘nalishida vaqt birligi ichida o‘tgan yo‘li uzunligi nima deb ataladi?

a) Yo‘nilgan masofa	c) Aylanishlar soni
b) Surish miqdori	d) Kesish teshligi

2. Vaqt birligi ichida (*bir minutda*) kesib olinadigan metall xajmi nimaga bog‘liq?

a) Kesish tezligiga	c) Surish miqdoriga
b) Kesish chuqurligiga	d) Barchasiga

3. Materiallarni kesib ishlash jarayonida qaysi yuzalar mavjud bo‘ladi?

a) asosiy va yordamchi yuzalar	c) Oldingi yuza, asosiy va yordamchi ketingi
b) kesish tezligiga perpendikulyar va parallel yuzalar	d) berilayotgan yuza, ishlov berilishi kerak bo‘lgan yuza

4. Keskichning kesish burchagi qanday belgilanadi?

a) δ	c) γ
b) λ	d) φ

5. Asosiy kesuvchi qirraning asosiy tekislikka tushirilgan proyeksiyasi bilan bo‘ylama surish yo‘nalishi orasidagi burchak qanday nomlanadi?

a) Oldingi burchak	c) Plandagi burchak
b) Asosiy ketingi burchak	d) Kesish burchagi

6. Kesuvchi asboblarni tayyorlash qaysi markali legirlangan po‘latlar eng ko‘p ishlatiladi?

a) B1; XBF; 9XC	c) P8; P6M5
b) T15K6; BK8; BK6	d) Y7A; Y9; Y12A

7. Metallarni kesish sanoatida metallokeramik qattiq qotishmalar qachon paydo bo‘ldi?

a) 1917 yildan	c) 1937 yildan
b) 1927 yildan	d) 1947 yildan

8. Kesish jarayonida hosil bo‘ladigan radial kuch qanday belgilanadi?

a) P	c) P_x
b) P_y	d) P_z

9. Kesish vaqtida hosil bo‘ladigan issiqlik miqdori qanday omilga bog‘liq?

a) Kesish chuqurligiga	c) Kesish tezligiga
b) Kesilayotgan materialning xossalari	d) Kesish uchun sarflangan ishga

10. Kesuvchi asbob yeyilishining qaysi davrida yedirilish sekin boradi va bir charxlanishdan ikkinchi charxlanishgacha bo‘lgan barcha vaqtning 90 – 95 % ni tashkil etadi?

a) Boshlang‘ich	c) Sekin
b) Jadal	d) Normal

Assessment 1.

1. Shpindelning bir marta aylanishiga to‘g‘ri kelgan surish qanday belgilanadi?

a) s_0	c) l
b) S	d) q

2. Keskich uchidan charxlanish yuzasining chiqish chizig‘igacha bo‘lgan va keskich tanasining bo‘ylama yoqlariga parallel tarzda o‘lchangan masofa qanday nolanadi?

a) Keskich kallagining balandligi	c) Keskich tanasining uzunligi
b) Keskich kallagining uzunligi	d) Keskich tanasining balandligi

3. Yordamchi kesuvchi qirra orqali asosiy tekislikka perpendikulyar holda o‘tkazilgan tekislik bilan yordamchi ketingi yuza orasidagi burchak qanday nomlanadi?

a) Plandagi burchak	c) O‘tkirlik burchagi
b) Yordamchi ketingi burchak	d) Oldingi burchak

4. Keskichning yordamchi ketingi burchagi qanday belgilanadi?

a) λ_l	c) φ_l
b) γ_l	d) α_l

5. Legirlangan po‘latlar tarkibidagi qaysi qo‘shimcha ularning yeyilishga chidamliligini va issiqbardoshligini oshiradi?

a) Volpfram	c) Kremniy
b) Xrom	d) Marganes

6. Mineralokeramik materiallarning qattiqligi qanchaga yetadi?

a) 61 – 64 HRC	c) 71 – 74 HRC
b) 91 – 93 HRC	d) 81 – 83 HRC

7. Mineralokeramik material markasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) T8K7	c) IQM 332
b) P10ΦK5	d) BK3M

8. Keskichga ta‘sir etuvchi barcha kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi P nechta ta‘sir etuvchi kuchga ajraladi?

a) 3	c) 2
b) 5	d) 4

9. Oldingi burchak manfiy bo‘lgan keskichlar bilan yo‘nishda kesish kuchi oldingi burchagi musbat bo‘lgan keskichlar bilan yo‘nishdagiga qaraganda ...

a) Kamayadi	c) Tenglashadi
b) Ortadi	d) Turg‘unlashadi

10. Kesish kuchi kattaligiga qaysi faktorlar ta‘sir ko‘rsatadi?

a) Yo‘nilayotgan material, keskichning plandagi burchagi va kesish tezligi	c) Keskichning oldingi burchagi va keskich uchining yumaloqlanish radiusi
b) Kesish chuqurligi va surish miqdori	d) Barchasi

Assessment 1.

1. Kesuvchi asbob bir marta o'tishida zagatovkadan kesib oladigan metall qatlaminiig kalinligiga nima deyiladi?

a) Surish miqdori	c) Asosiy harakat
b) Kesish teshligi	d) Kesish chuqurligi

2. Surish yo'nalishi bo'yicha keskichlar necha turga bo'linadi?

a) 2	c) 4
b) 3	d) 5

3. Keskichning yordamchi ketingi burchagi qanday belgilanadi?

a) α_1	c) φ_1
b) δ_1	d) ω_1

4. Legirlangan po'latlar tarkibidagi qaysi qo'shimcha ularning toblashga bo'lgan moyilligini oshiradi?

a) Marganes	c) Vannadiy
b) Kremniy	d) Xrom

5. Uch karbidli qaysi metalokeramik qattiq qotishmalar javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) T5K10; HTH30	c) TT7K12; TT10K8B
b) BK15, P6M5	d) BK3M, XBF

6. Mineralokeramik materiallar necha guruhga bo'linadi?

a) 2	c) 4
b) 3	d) 5

7. Qattiqligi o'rtacha va yuqori metallarni kichik tezlik, katta surish bilan va oldingi burchagi kichik keskich bilan yo'nishda qanday qirindi hosil bo'ladi?

a) Egri	c) Tutash
b) Siniq	d) Uvoq

8. $N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60}$ formula bilan qanday kattalik hisoblab topidadi?

a) Texnologik vaqt	c) Dastgoh yuritmasidagi elektr dvigatelning quvvati
b) Dastgoh elektr dvigatelining foydali ish koeffisenti	d) Kesishga sarflanadigan effektiv quvvat

9. Kesish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlikning taqsimlanishini birinchi bo'lib qaysi olim tekshirgan?

a) Ya.G. Usachev	c) K.A. Zvorikin
b) I.A. Time	d) V.K. Seminskiy

10. Po'latning mexanikaviy xossalarini pasaytirmaslik va, ayni vaqtda, kesib ishlanuvchanligini yaxshilash uchun unga ozroq miqdorda qaysi element qo'shiladi?

a) Marganes	c) Qo'rg'oshin
b) Kremniy	d) Fosfor

Assessment 1.

1. Kesish jarayonida keskichning qirindi chiqib, unga tegadigan -yuzasi qanday nomlanadi?

a) Oldingi yuza	c) Yordamchi ketingi yuza
b) Asosiy ketingi yuza	d) Kesuvchi yuza

2. Keskichning plandagi burchagi qanday belgilanadi?

a) ω	c) α
b) φ	d) δ

3. Keskichning asosiy kesuvchi qirraning qiyalik burchagi burchagi qanday belgilanadi?

a) φ	c) λ
b) γ	d) δ

4. Qaysi po'lat tarkibida tarkibida 19% gacha volfram, 4 – 5% gacha xrom va 2 – 3% gacha vanadiy bo'ladi?

a) Legirlangan po'lat	c) Metallokeramika
b) Uglerodli po'lat	d) Tezkesar po'lat

5. Mo'rt materiallarga ishlov berish uchun foydalaniladigan metallokeramik qattiq qotishmalar guruhini belgilang?

a) BK4; BK6	c) 9XC; B1
b) T15K6, T5K10	d) HTH30; P10ΦK5

6. Titan – volfram – kobaltli qattiq qotishmalar necha karbidli deyiladi?

a) 1	c) 3
b) 2	d) 4

7. Kesishda kesuvchi qirra oldida hosil bo'lgan presslangan do'mboqcha nima deb ataladi?

a) Qirindi	c) O'simta
b) Naklyop	d) O'zak

8. Yo'nilayotgan zagatovka o'qiga perpendikulyar tarzda yo'naladigan kesish kuchi qanday nomlanadi?

a) Surish kuchi	c) Tangensial kuch
b) Kesish kuchi	d) Radial kuch

9. Kesish vaqtida hosil bo'ladigan issiqlik miqdorining eng ko'p miqdori qayerga ketadi?

a) Detalga	c) Dastgoh qismlariga
b) Kesuvchi asbobga	d) Qirindiga


10. Metallning yo'nilgan yuza ostida plastik deformatsiyalanishi nima deb ataladi?

a) O'simta	c) Donadorlik
b) Kristal	d) Puxtalanish

Assessment 2.

Spiral parmaning rasmida ko'rsatilgan qismi qanday nomlanadi?

1.



- a) Lentasi
b) Silindrik qism
c) Tish orqasi
d) Qirindi ariqchasi

2.

Spiral parmada vintsimon ariqchalar soni nechta bo'ladi?

- a) 1
b) 2
c) 3
d) 4

3.

Parma uchidagi burchagining qiymati 2ϕ ebonit, selluloid, marmar kabi mo'rt materiallarga ishlov berishda qancha qabul qilinadi?

- a) $116 - 120^\circ$
b) $80 - 90^\circ$
c) $130 - 140^\circ$
d) $125 - 135^\circ$

4.



Rasmida frezaning qaysi turi ko'rsatilgan?

- a) Silindrik freza
b) Barmoq freza
c) Tores freza
d) Disk freza

5.

Cho'yan zagatovkalariga mexanik ishlov berishda kashsi markadagi materialdan tayyorlangan frezalardan foytdaniladi?

- a) BK8, BK6
b) T15K6, T5K15
c) P14Φ4, P9
d) Y10, Y8A

6.

P9 va P18 markali tezkesar po'latdan tayyorlangan zenkerlarda plandagi asosiy burchagi ϕ qanday bo'ladi?

- a) $45 - 60^\circ$
b) $55 - 60^\circ$
c) $45 - 70^\circ$
d) $55 - 70^\circ$

7.

Tozalab razvyortkash uchun diametrga qancha miqdorda qo'yim qoldiriladi?

- a) 0.5 - 1 mm
b) 0.1 - 0.15 mm
c) 0.05 - 0.25 mm
d) 1 - 1.5 mm

8.

Sidirgichning qaysi qismi uni dastgoh patroniga mahkamlash uchun xizmat qiladi?

- a) Yo'naltiruvchi qism
b) Kalibrlovchi qism
c) Bo'yin qism
d) Quyruq qism

9.

Tishli g'ildiraklar tayyorlashning obkatkash usulida qaysi frezadan foydalaniladi?


- a) Modulli barmoq
b) Modulli disk
c) Modulli tores
d) Modulli chervyak

10.

Abraziv asboblarning markalanishidagi CM xarflari nimani anglatadi?

- a) Juda qattiq
b) Keramik bog'lovchini
c) O'rtacha yumshoq
d) To'g'ri profilli ekanligini


Assessment 2.

1. Yaxlit materialda ochiq va yopiq silindrik teshiklar hosil qilish uchun qanday kesuvchi asbobdan foydalaniladi?
- a) Zenker
b) Razvyortka
c) Barmoq freza
d) Parma
2. Spiral parmaning rasmda ko'rsatilgan qismi qanday nomlanadi?
- 
- a) Oldingi yuza
b) Ketingi yuza
c) Qirindi ariqchasi
d) Tish orqasi
3. Parmalash jarayonida hosil qilingan teshikni sifatini qanday bo'lishi mumkin?
- a) $R_z = 20$ mkm
b) $R_z = 30$ mkm
c) $R_a = 40$ mkm
d) $R_z = 40$ mkm
4. Spiral parmaning qaysi elementi ikkala ketingi yuzalarning o'zaro kesishuvi natijasida hosil bo'ladi?
- a) Ko'ndalang qirra
b) Asosiy kesuvchi qirralar
c) Oldingi yuza
d) Vintsimon ariqchanning qiyalik burchagi
5. Parmaning uchidagi burchagi qanday belgilanadi?
- a) 2ε
b) ψ
c) 2φ
d) ω
6. Spiral parmada ko'ndalang qirraning qiyalik burchagi ψ ning qiymati qancha qabul qilinadi?
- a) $80 - 90^\circ$
b) $125 - 135^\circ$
c) $50 - 55^\circ$
d) $70 - 75^\circ$
7. Disk frezalar tayyorlanish konstruksiyasiga ko'ra necha turga bo'linadi?
- a) 2
b) 3
c) 4
d) 5
8. Tishlari o'tkir uchli frezalar qaysi yuzasidan qayta charxlanadi?
- a) Oldingi
b) Ketingi
c) Yordamchi ketingi
d) Plardagi asosiy
9. T15K6 va BK8 markali qattiq qotishma plastinkalari kavsharlangan zenkerlarda plandagi asosiy burchagi φ qanday bo'ladi?
- a) $40 - 55^\circ$
b) $70 - 85^\circ$
c) $50 - 65^\circ$
d) $60 - 75^\circ$
10. Sidirgichning qaysi qismi kesish oldidan sidirgichni zagatovkaga nisbatan aniq markazlash uchun xizmat qiladi?
- a) Yo'naltiruvchi qism
b) Quyruq qism
c) Kalibrlovchi qism
d) Bo'yin qism

Assessment 2.

1. Materiallarni parmalash jarayonida parmaning yoki detalning o‘z o‘qi atrofida qiladigan aylanma harakatiga nima deyiladi?

a) Asosiy harakat	c) Surish harakati
b) Ishchi yurish	d) Shpindelning aylanishlar miqdori

2.  Spiral parmaning rasmda ko‘rsatilgan qismi qanday nomlanadi?

a) Ketingi yuza	c) Kesuvchi qirra
b) Oldingi yuza	d) Kesuvchi qism

3. Parmalar o‘z konstruksiyasi jihatidan qanday turlarga bo‘linadi?

a) Pat, markaz, ichki teshikli, peremichkasiz	c) Egilgan, to‘g‘ri, cho‘ziq kallakli, chapaqay
b) Tores, silindrik, barmoq, disk	d) Vintsimon, to‘g‘ri tishli, egri tishli, qattiq qotishma plastinkasi bilan ta‘minlangan

4. Spiral parmaning qaysi qismi kesuvchi qism, silindrik qism va vintsimon ikkita ariqchadan iborat?

a) Quyuq qismi	c) Povodok
b) Ish qismi	d) Vintsimon ariqchanning qiyalik burchagi

5. Parma uchidagi burchagining qiymati 2ϕ alyuminiy, alyuminiy qotishmalari, elektron babbib kabi materiallarga ishlov berishda qancha qabul qilinadi?

a) $80 - 90^\circ$	c) $116 - 120^\circ$
b) $130 - 140^\circ$	d) $125 - 135^\circ$

6. Tishli g‘ildiraklarning zagatovkalariga tishlar frezalash uchun qanday frezalar ishlatiladi?

a) Modulli frezalar	c) Disk frezalar
b) Barmoq frezalar	d) Taroq frezalar

7. Razvyortkalangan yuzalarning tozaligi nechanchi sinfga to‘g‘ri keladi?

a) 7 – 9	c) 9 – 11
b) 5 – 7	d) 6 – 8

8. Tishli g‘ildiraklar tayyorlashning kopirlash usulida qaysi frezadan foydalaniladi?

a) Modulli chervyak va modulli barmoq	c) Modulli disk va Modulli barmoq
b) Modulli chervyak va modulli disk	d) Modulli disk va modulli tores

9. Parma uchidagi burchagining qiymati 2ϕ nimaga qarab tanlab olinadi?

a) Ishlov beriladigan materialga	c) Parmaning diametriga
b) Kesish tezligiga	d) Surish miqdoriga

10. Spiral parmaning qaysi elementi kesish jarayonida parmani yo‘naltiradi va markazlab turadi?

a) Asosiy kesuvchi qirralar	c) Ish qismi
b) Vintsimon lentalar	d) Parmaning o‘zagi

Assessment 2.

1. Vertikal parmash dastgohida parmaning o‘z o‘qi bo‘ylab ilgariylanma harakatlanishiga nima deyiladi?

- a) Surish harakati
 b) Asosiy harakat
 c) Ishchi yurish
 d) Bo‘ylama yurish

2. Spiral parmaning rasmda ko‘rsatilgan qismi qanday nomlanadi?



- a) Quyuq
 b) Bo‘yin
 c) Povodok
 d) Panja

3. Spiral parmaning qaysi qismi kesish vaqtida parmani yo‘naltiradi va teshikni zarur o‘lchamga keltiradi?

- a) Silindrik qismi
 b) Kesuvchi qismi
 c) Ish qismi
 d) Lentasi

4. Spiral parmaning qaysi elementi oldingi va ketingi yuzalarning o‘zaro kesishuvidan hosil bo‘ladi?

- a) Asosiy kesuvchi qirralar
 b) Ko‘ndalang qirra
 c) Vintsimon lentalar
 d) Vintsimon ariqchening qiyalik burchagi

5. Spiral parmaning qaysi qismi bir – biriga ma’lum burchak hosil qilib joylashgan ikkita asosiy kesuvchi qirra bilan ko‘ndalang qirradan iborat?

- a) Kesuvchi qismi
 b) Ish qismi
 c) Silindrik qismi
 d) Vintsimon ariqchening qiyalik burchagi

6. Spiral parmada ikkita asosiy kesuvchi qirra orasida hosil bo‘lgan burchakka qanday burchak deyiladi?

- a) Ko‘ndalang qirraning qiyalik burchagi
 b) Yordamchi ketingi burchak
 c) Vintsimon ariqchening qiyalik burchagi
 d) Parmaning uchidagi burchagi

7. Parma uchidagi burchagining qiymati 2ϕ titan qotishmalariga ishlov berishda qancha qabul qilinadi?

- a) $130 - 140^\circ$
 b) $125 - 135^\circ$
 c) $116 - 120^\circ$
 d) $90 - 120^\circ$


8. Tezkesar po‘latdan tayyorlangan frezalar uchun oldingi burchak qanday miqdorda qabul qilinadi?

- a) $40 - 60^\circ$
 b) $30 - 50^\circ$
 c) $20 - 30^\circ$
 d) $10 - 30^\circ$

9. Disk frezalarning kesuvchi tishlari qanday ko‘rinishlarga ega?

- a) To‘g‘ri tishli
 b) Ilon izli
 c) Uch tomonli
 d) Barchasi

10. Rasmda qanday jilvirlash usuli tasvirlangan?



- a) Doiraviy jilvirlash
 b) Markazsiz jilvirlash
 c) Ichki jilvirlash
 d) Yassi jilvirlash

